

LOTIN-YUNON TILLARINING DUNYO MADANIYATIDAGI O'RNI.

Beknazarova Moxiya Kenjayevna

Samarqand davlat tibbiot uniuersiteti assistant o'qituvchchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola mening lotin tili va tibbiyot termenlariga qiziqishim balandligi va bu tilning fanlar ,madaniyat rivojlanishi tarixi zarvaraqlarida katta va biqiyos o'rnini bor ekanligini anglaganligim natijasi o'laroq dunyoga keldi desam mubolag'a bo'lmas. Atrofimizdagi juda o'lkan miqyosdagi termenlarning lotin -yunon tillarida kirib kelishganligini tibbiyot universitetiga kirgach, aniqrog' lotin tili fani kursini o'qib boshlagach to'liq tushunib yetganmas.

Tarixda buyuk bir imperiyaning davlat tili hisoblangan bu til yunon tilidan katta qismdagi so'zlarni o'zlashtirgan va lotinlashtirgan. Buning natijasida esa bu til leksik jihatdan boyigan. Boshqa til soxiblariga esa yunoncha so'zlarni o'zlashtirishga yordam bergan .Bu ikki tilda yaratilgan ilmiy va badiiy asarlarning hali hanuz dolzarb ekanligi hammaga ayon. Birgina yevropa tibbiyotining otasi deya tan olingan Gippokratning yozgan asarlariga nazar soladigan bo'lsak buning isbotini ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: dunyo tamadduni, fanlar beshigi , tarix zarvarag'i, adabiy va ilmiy asarlar, chegara bilmas, historica,

Tarix silsilasi dunyo madaniyatida juda ko'p tillarni vujudga keltirdi, juda ko'p tillarni bu maydondan chiqarib tashladi. Lotin tili Italiya davlatining g'arbiy chegarasidagi Latsiya viloyatining lotin qabilasi tili asosida vujudga kelgan. Bu til shimoliy Afrika, Yunoniston, Karfagen, Egipet, Suriya hududidagi xalqlarni mustamlakaga aylantirish natijasida kengaydi.

V-asrga kelib Rim imperiyasining qo'lashi oqibatida lotin tili o'z ahamiyatini yo'qota boshladi va roman tillarining tarmoqlanishi boshlandi. IX-asrga kelib esa italyan, ispan, Portugal, frantsuz, rumin, moldavan tillari vujudga kela boshladi. Ammo ularni so'g'orib turuvchi "bo'loq" lotin tili edi. Yozma lotin tili bu tillarda saqlanib qoldi, leksik jihatdan rivojlanishda davom etdi, klassik lotin tilining asosiy lug'at tarkibi va grammatik qurilishi barqarorlashdi. Bu vaqtda lotin tili ham og'zaki ,ham yozma va ilmiy til sifatida g'arbiy Evropada mavjud edi .Hozirgi kunda ilm-fan tili bo'lgan lotin tili Vatikan davlatining rasmiy tilidir.

Shunday qilib biz "o'lik til" deb hisoblaydigan lotin tili roman tillari guruhi uchun ona tili hisoblanadi. Keling endi bu tilning dunyo madaniyatida tutgan o'rniga nazar tashlaymiz.

Fanning qaysi sohasiga yuzlanmang lotincha so'zlarga duch kelasiz. Demak lotin tili insonlar orasida kommunikatsiya vositasi sifatida turli millat vakillarini bir-birlarini osonroq tushunishlariga yordam beradi. Hatto ayrim so'zlarning lotin tilidan

kirib kelgan so'zlar ekanligini unutib qo'yamiz. Abservatoriya, konstitutsiya, auditoriya, respublika, reforma, universitet, attestatsiya, congress, fakultet, lektsiya, konsultatsiya, repetitor, doctor, student, laboratoriya, subjekt, imperiya, konferentsiya, revolutsiya, situatsiya, realism, organism kabi minglab so'zlar insonlar tushunchasida bir –xil ma'noni anglatuvchi so'zlardir.

Ayrim lotincha so'zlar borki,ular tarjima talab qilmaydi. Alma Mater(мать кормилица) oliygohlar haqidagi bu ibora insonlarning ta'lim dargohlariga munosabatini anglatsa, "Salus populi- suprema Lex" - "Xalq manfaati-oily qonun"- iborasi butun dunyo sud-huquq tizimi xodimlarining deviziga aylangan. Mana bu ibora esa dunyo sportchilarini bir alanga ostida bir maydonga to'playdi: Citius, altius, fortius.-Tezroq, balandroq, kuchliroq. Homo sapiens- Aqlli inson- iborasi talabalar orasida ko'p qo'llaniladi. Shunga o'xshash iboralar o'zbek va boshqa tillarda o'z muqobiliga ega, roman guruhi tillariga esa tarjimasiz, asl hoida qo'llaniladi, ular juda ko'p qo'llanilganligi bois xalqlar tiliga singib ketgan.Yana bir maqol orqali biz mavzumizning asl maqsadini ochib bersak-Invia est in medicina via sine lingua latina-Lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q. Darhaqiqat tibbiyot fanlari yoki tibbiyotning sohaları lotin-yunon tillarri bilan chambarchas bog'liq. Anatomiya, xirurgiya, fiziologiya, terapiya, nevrologiya, cardiologiya, endocrinologiya, pulmonolgiya kabi o'nlab tibbiyotga tegishli sohalar butun dunyo tibbiyotida lotin-yunon so'zlari orqali ifodalanadi va barcha insonlarga bir xilda tushunarlidir. Anatomiya fanini o'rganishga kirishgan talaba inson organizmining har-bir a'zolar tizimini-suyak(osteologia)lar, mushak(myologia)lar, bog'lam (syndes- mologia)larni lotincha nomi bilan tanishib chiqishi, yoddan bilishi lozim. Gistologiya (histo-to'qima)fanini o'rganar ekan biopsiya (bio-hayot,opsia-ko'rish.) to'qimani mikroskop ostida tekshirish),tsitodiagnostika(cyto-hujayra, diagnosis-tashhis)terminlari bilan ishlaydilar. Klinik fanlarga kelganda esa ham lotin ham yunoncha so'zlar fanda qo'llanila boshlaydi. Kasallik nomlari, tashhis usullari,tekshirish usullari,tekshiruvchi asbob-uskuna nomlarini o'rganishda tibbiyot oliygohi talabasiga yana lotin-yunon terminlari yordamga keladi.

Farmatsiya sohasining ilmiy terminlari ham bizgacha shu ikkala til orqali yetib kelgan. Aniq, tushunarli, jarangdor bu tillardagi ilmiy terminlar butun dunyo vrachlari va farmatseftlari uchun xalqaro tibbiyot va farmatsiya tili bo'lib xizmat qiladi. Retseptura bo'limida ham tibbiyot instituti talabalari dorivor moddalar, dorivor vositalar,dorivor o'simliklar,dori preparatlari nomlarini lotin-yunon tillarida o'rganib o'tadilar. Bundan tashqari talabalar lotin tilida berilgan tibbiyotga oid lotin tilidagi matnlar tarjimasini bilan ham shug'ullanadilar.

Cranium dividitur in cranium cerebrale et cranium vescerale. Cranium cerebrale ex octo ossibus compositor:osse frontali,ossibus temporalibus,parietalibus,osse sphenoidale,ethmoidali,occipital.Cranium vescerale ossa quindecim formant: man

dibula, ossa palatina, zygomatica, nasalia, lacrima, conchae nasals inferiores, vomer mandibulae, os hyoedum. Ossa cranium inbolia sunt, mandibula salum mobilis os est.

Shunday qilib lotin-yunon tillarini bizgacha yetib kelgan ilmiy va badiiy asarlar, fandagi ilmiy terminlar, maqollar yordamida o'rganishimiz, tahlil qilishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida ushbu tilning dunyo ilmlari va madaniyatining rivojiga qo'shgan hissasi beqiyosligini ko'rsatadi.

Foydalangan adbiyotlar:

1. Бесков А.А. Мифология мифологии // Общество. Среда. Развитие. - 2015, № 1. - С. 116-120.
2. Mahmudov Zafar Mardanovich, Safarova Umida Aliaskarovna, Beknazarova Mokhiya Kenjaevna, Aytmuratova Perxan Genjebayevna, Sharipov Bobur Salimovich: Some Considerations about Legal Solutions and Practices of Certain Problems
Writing Recipes
<http://annalsofrscb.ro/index.php/journal/article/view/3085> Дата публикации 2021/4/14 Журнал Annals of the Romanian Society for Cell Biology Страницы 5341-5352
3. Y.S. Karimovna, A.P. Kenjabaevna, E.M. Bakhodirovna Phraseological units in the medical field of english and uzbek cultures.
4. Fomina Maide Anatolyevna, Beknazarova Mokhiya Kenzhaevna, Shamsiev Kakhramon Kamariddinovich: The role of word-building elements in teaching the translation-free reading of medical texts (<https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/1009>), Archive of Conferences: Vol. 20 No. 1 (2021): IMSCIT-6 USA (<https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/issue/view/23>)
5. The Most Important Criteria For Evaluating Student Knowledge (<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=12266413480502137232&btnI=1&hl=ru>) M.K. Beknazarova - Web of Scientist: International Scientific Research ..., 2022
6. Beknazarova Mokhiya Kenzhayevna, Ibragimova Dilbar Sadullayevna Aitmuratova Perxan Genzhebeyevna: The effectiveness of the staged principle in the study of the latin language in medical institutions. Дата публикации 2021/5 Журнал International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS) Том 2 Номер ISSN: 2249-7382 | Impact Factor: 8.018 Страницы 62-67 Издатель
7. Aytmuratova Perxan Genjebayevna, Esanova Maftuna Bakhodirovna: the importance of teaching latin in medical schools Дата публикации 2022/12/17 Журнал Thematics Journal of Education Том 7 Номер 5
8. Aytmuratova Perxan Genjebayevna, & Asif Equebal. (2023). NOUNS IS THE 3RD DECLENSION. *Yangi O'zbekistonda Tabiiy Va Ijtimoiy-Gumanitar Fanlar Respublika Ilmiy Amaliy Konferensiyasi*, 1(7), 101–106.